



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-aprel


## RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 43276,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Toshkent shahrida xizmatlar sohasining o'sish sur'ati 112,9 % ga yetdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1323,0 ming.so'mni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatishning sifati va qulayligini tubdan oshirish bo'yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish, shuningdek, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga olib keladi.


Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 43276,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,6 % ni tashkil etdi.

## 2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



- |          |                                       |           |  |
|----------|---------------------------------------|-----------|--|
| <b>1</b> | Xizmatlar - jami                      | <b>8</b>  | Ta'lim sohasidagi xizmatlar                  |
| <b>2</b> | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | <b>9</b>  | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar       |
| <b>3</b> | Moliyaviy xizmatlar                   | <b>10</b> | Ijara xizmatlari                             |
| <b>4</b> | Transport xizmatlari                  | <b>11</b> | Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| <b>5</b> | Yashash va ovqatlanish xizmatlari     | <b>12</b> | Shaxsiy xizmatlar                            |
| <b>6</b> | Savdo xizmatlari                      | <b>13</b> | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar            |
| <b>7</b> | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | <b>14</b> | Boshqa xizmatlar                             |

2018 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (41,5 %), moliyaviy xizmatlar (28,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (20,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (11,8 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni transport xizmatlari (30,3 % ) savdo xizmatlari (27,5 %), moliyaviy xizmatlar (13,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,0 %) egallaydi.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulush, %


Transport xizmatlari	30,3 %
Savdo xizmatlari	27,5 %
Moliyaviy xizmatlar	13,6 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	7,0 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,3 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,1 %
Boshqa xizmatlar	3,1 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,9 %
Shaxsiy xizmatlar	2,6 %
Ijara xizmatlari	2,1 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1,8 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,3 %

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga bo'lgan talabning oshganligi hamda turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,9 % ga yetdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahrida (134,6 %), Toshkent (132,3 %), Surxondaryo (131,3 %), Navoiy (129,7 %) va Jizzax (128,9 %) viloyatlarida qayd etildi.


### 2018 yil yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati , %



Moliyaviy xizmatlar bo'yicha eng past o'sish sur'atlari boshqa hududlarga nisbatan Xorazm (113,4 %), Namangan (115,9 %), Qashqadaryo (116,4 %), Andijon (117,3 %), Buxoro (118,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

O'zbekiston bugungi kunda transportning mavjud barcha turlari va yo'nalishlari bo'yicha yuklarni va yo'lovchilarni tashishda mamlakat ihtiyojlarini ta'minlay oladigan ulkan transport imkoniyatlariga ega.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %




Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar (48,0 %) egallaydi. Bu uning harakatchanligi, yuklarni (yo'lovchilarni) yo'lda boshqa transportga qo'shimcha yuklamasdan (o'tkazmasdan) "eshikdan eshikgacha" etkazib berishda qulayligi, hamda, transport vositasini harakatlantirishda mustaqilligi bilan izohlanadi.

Quvurlar orqali ko'rsatilgan transport xizmatlari jami transport xizmatlarining 18,6 % ni tashkil etadi. Temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar transport xizmatlari umumiy hajmining 16,5 % ni tashkil qiladi. Yuk va yo'lovchilarni havo transporti orqali tashish bo'yicha xizmatlarning ulushi jami transport xizmatlarida 10,0 % ga yetdi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 6,9 % ni tashkil qiladi.

Yuklarni va yo'lovchilarni tashishda avtomobil transporti muhim rol o'ynaydi. Avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida eng yuqori ulush Toshkent shahri (16,7 %), Toshkent (13,8 %), Samarqand (11,7 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %




Vaqt o'tishi bilan avtomobil transporti orqali tashishning ahamiyati ortib boradi, chunki u tezroq va ishonchli hisoblanadi hamda yuklarni yuqolishi va zarar yetish xavfi pastroq darajadali bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bir qancha tez buziladigan mahsulotlar va shoshilinch tovarlar uchun avtomobil transporti orqali tashuvlar yagona haqiqiy tashish usuli hisoblanadi. Shu sababli, avtomobil transporti O'zbekistondan eksport qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik buyumlari va boshqa noxom-ashyo tovarlarni tashishning ma'qul vositasi hisoblanadi.



Jahon bozorining rivojlanish tahlili shuni ko'rsatdiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlar uchun yangi bozorlarni yaratish va mavjudlarini kengaytirishga yordam beradi, pirovard natijada aholining turmush sifatini oshirishga erishiladi.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Hududlar kesimida yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (123,0 %), Navoiy (122,9 %), Namangan (122,6 %), Buxoro (121,9 %), Samarqand (121,9 %), Farg'ona (121,1 %), Surxondaryo (120,6 %), Jizzax (120,5 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Toshkent shahri (13842,8 mlrd.so'm), Toshkent (3210,4 mlrd.so'm) viloyatiga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Sirdaryo (557,2 mlrd.so'm), Jizzax (892,0 mlrd.so'm) viloyatlarida kuzatilmoqda.


### 2018 yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>43276,9</b>	<b>107,6</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1293,7	106,4
viloyatlar:		
Andijon	2367,8	105,4
Buxoro	1873,8	104,9
Jizzax	892,0	106,9
Qashqadaryo	2063,5	104,0
Navoiy	1126,3	110,8
Namangan	1800,9	105,2
Samarqand	2910,9	106,1
Surxondaryo	1626,6	106,4
Sirdaryo	557,2	104,4
Toshkent	3210,4	103,1
Farg'ona	2693,7	105,6
Xorazm	1255,8	104,2
Toshkent shahri	13842,8	113,2



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida respublika bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Toshkent shahri (32,0 %), Toshkent (7,4 %), Samarqand (6,7 %) , Fargona (6,2 %), Andijon (5,5 %) viloyatlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,0 %) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1323,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida - 5603,5 ming so'm qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,2 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida kuzatildi - 645,6 ming so'm, o'sish sur'ati esa 104,2 % ni tashkil etdi.

Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi  
boshqarmasi

Mas'ul: Q.Berdiqulov

(71) 230-80-59